

## O‘QITUVCHINING REFLEKSIV FAOLIYATI – KASBIY RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

### Mamasoliyeva Gulasalxon Mahamadisaq qizi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada refleksiv faoliyatning mazmuni, o‘qituvchilik kasbida tutgan o‘rni hamda pedagogning kasbiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. O‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘rganish, xatolarni anglash va takomillashtirishga intilishi orqali zamonaviy ta’lim talablariga mos shakllanish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, refleksiya madaniyati pedagogning ijodiy yondashuvi, tashabbuskorligi va ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omil to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *refleksiv faoliyat, pedagogik refleksiya, o‘qituvchi malakasi, kasbiy rivojlanish, o‘zini baholash, ta’lim sifati, pedagogik madaniyat.*

Bugungi kunda o‘qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi shaxs sifatida qatnashishi talab qilinmoqda. Bu esa o‘qituvchidan uzluksiz kasbiy o‘shishni, o‘z faoliyatini tahlil qila olish, samaradorlikni oshirish yo‘llarini izlashni taqozo etadi. Shunday jihatlar refleksiv faoliyat orqali namoyon bo‘ladi. Refleksiv yondashuv o‘qituvchining o‘z amaliyotini ongli ravishda tahlil qilishi, o‘z ustida ishlashi va yangilikka intilishi bilan ajralib turadi. Bu holat o‘z navbatida kasbiy kamolotning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanadi.

1. Refleksiya tushunchasi va uning pedagogik mazmuni.

Refleksiya bu — shaxsning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan ichki fikrlash jarayonidir. Pedagogik kontekstda esa refleksiya o‘qituvchining dars jarayonini, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatini, qo‘llagan metodlari va ularning samaradorligini baholashi orqali kasbiy yuksalishiga olib keladigan doimiy ichki mulohaza va o‘zgarishlar tizimidir. Refleksiv o‘qituvchi o‘z faoliyatini avtomatik emas, ongli ravishda quradi, xatolardan saboq oladi, yangilikka ochiq bo‘ladi va o‘zgarishlarga moslashuvchanlik ko‘rsatadi.

2. O‘qituvchining refleksiv faoliyatini shakllantirish bosqichlari.

Refleksiv faoliyat pedagogik jarayonda quyidagi bosqichlar orqali rivojlanadi:

– Kuzatish – o‘z faoliyatiga nisbatan obyektiv baho berish uchun tashqi va ichki omillarni aniqlash

– Tahlil – dars jarayonida nima ishladi, nima ishlamadi degan savollar asosida samaradorlikni tahlil qilish

– Xulosa chiqarish – kelgusida darsni qanday yaxshilash mumkinligi haqida fikr yuritish

– Takomillashtirish – yangilangan metod, yondashuv yoki vositalarni amaliyotda sinab ko‘rish

Bu jarayon doimiy takrorlanib boradi va pedagogik mahoratning tabiiy o‘shishiga zamin yaratadi.

### 3. Refleksiyaning o‘qituvchi kasbiy rivojlanishidagi o‘rni.

Refleksiya o‘qituvchining o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi. Refleksiv pedagog o‘z faoliyatini tashqi talablar asosida emas, ichki motivatsiya bilan baholaydi va doimiy ravishda savollar beradi: men bu darsni nega shunday o‘tdim, bu metod o‘quvchilarim uchun qay darajada foydali bo‘ldi, qanday qilib o‘quvchilarimni ko‘proq jalb qila olaman. Bu savollarni doimiy ravishda berish va javob izlash orqali o‘qituvchi o‘z tajribasini chuqurlashtiradi, innovatsion fikrlaydi va professional jihatdan o‘sadi.

Refleksiya pedagogik faoliyatda quyidagi natijalarni beradi:

- Dars sifati va o‘quvchilarning faolligi oshadi
- O‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi
- Kasbiy kuyunchaklik (emotsional charchash) darajasi pasayadi
- Pedagogik yangiliklarga moslashish osonlashadi

### 4. Refleksiv madaniyatni shakllantirish usullari

O‘qituvchining refleksiv faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy usullar samarali hisoblanadi:

- Reflektiv kundalik yuritish – har bir darsdan so‘ng qisqacha tahliliy yozuv qilish
- Videotahlil – o‘z darslarini yozib olib, ularni tahlil qilish
- O‘zaro kuzatish – boshqa o‘qituvchilarning darslarida ishtirok etib, o‘z faoliyati bilan solishtirish
- Metodik birlashma doirasida muhokama – o‘z tajribasini tahlil qilish va baham ko‘rish
- Professional portfel yuritish – o‘z yutuqlari, ishlanmalarini tizimli shaklda saqlash va tahlil qilish

Refleksiv faoliyat zamonaviy o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘ringa ega. Bu jarayon orqali pedagog o‘z faoliyatiga tanqidiy va konstruktiv yondasha oladi, o‘quvchilar ehtiyojiga mos metodlarni tanlaydi, shuningdek, uzluksiz rivojlanishga intiladi. Refleksiv madaniyatni shakllantirish esa o‘qituvchilik kasbini nafaqat kasbiy, balki insoniy va ijtimoiy jihatdan yuksak darajaga olib chiqadi. Bugungi ta’limda bunday o‘qituvchiga ehtiyoj nihoyatda yuqori.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom
2. Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., 1992
3. Dolimov S. Ubaydullayev H. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., 1967